XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA O‘RTA OSIYO TA’LIM TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIYLIK, MUSTAMLAKACHILIK VA JADID PEDAGOGIKASI

Akbarov Odiljon Ergashevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimida yuz bergan murakkab transformatsiya jarayonlari tarixiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Muallif an’anaviy maktab va madrasalar tizimi, Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan rus-tuzem maktablari hamda Jadidchilik harakati ilgari surgan “usuli jaded” pedagogikasining mazmuni, o‘zaro ziddiyatlari va ijtimoiy funksiyalarini ochib beradi. Maqolada, shuningdek, ta’lim tizimidagi hududiy tafovutlar (Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xiva misolida), o‘qituvchi institutining evolyutsiyasi hamda ta’limga kirishdagi gender va iqtisodiy cheklovlar qamrab olingan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo ta’lim tarixi, an’anaviy ta’lim, rus-tuzem maktablari, Jadid pedagogikasi, usuli jadid, ta’lim transformatsiyasi, o‘qituvchi instituti, hududiy tafovutlar, yodlash pedagogikasi.

Аннотация: В данной статье с историко-педагогической точки зрения анализируются сложные трансформационные процессы, происходившие в системе образования Средней Азии в конце XIX – начале XX веков. Автор раскрывает содержание, взаимные противоречия и социальные функции традиционной системы школ и медресе, русско-туземных школ, введенных Российской империей, и педагогики «усули жадид», выдвинутой джадидским движением. В статье также рассматриваются региональные различия в системе образования (на примере Ташкента, Бухары, Самарканда и Хивы), эволюция института учителя, а также гендерные и экономические ограничения в доступе к образованию.

Ключевые слова: История среднеазиатского образования, традиционное образование, русско-туземные школы, джадидская педагогика, джадидский метод, трансформация образования, институт учителя, региональные различия, педагогика заучивания.

Abstract: This article analyzes the complex transformation processes that occurred in the education system of Central Asia in the late 19th

and early 20th centuries from a historical and pedagogical perspective. The author reveals the content, contradictions and social functions of the traditional system of schools and madrasas, the Russian-native schools introduced by the Russian Empire, and the “Jadid method” pedagogy promoted by the Jadid movement. The article also covers regional differences in the education system (using the examples of Tashkent, Bukhara, Samarkand, and Khiva), the evolution of the teacher institution, and gender and economic constraints on access to education.

Keywords: History of Central Asian education, traditional education, Russian-native schools, Jadid pedagogy, Jadid method, transformation of education, teacher institution, regional differences, memorization pedagogy.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo jamiyati tarixiy burilish nuqtasiga kirib keldi. Bu davr Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy integratsiya, yangi ma’muriy institutlarning joriy etilishi va madaniy transformatsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ushbu murakkab jarayonda ta’lim tizimi jamiyatning ichki tuzilishini o‘zgartiruvchi eng muhim ijtimoiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi [5].

Asrlar davomida shakllangan maktab va madrasa tizimi O‘rta Osiyoda diniy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlab kelgan bo‘lsa-da, XIX asr oxiriga kelib u zamonaviy ilm-fan, texnika va ijtimoiy taraqqiyot talablariga moslashishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Shu boisdan Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li 1905-yilda shunday yozgan edi: “Ahvolimizni islohi esa zamong‘a muvofiq ulum-u fununni tahsiliga tezdan shuru qilmak ila vujudg‘a kelur. Zamona ulum-u fanlaridan xabardor o‘lmak esa maktab va madrasalarimizni va usuli ta’lim va tadrislarimizni islohig‘a mavqufdir” [3, B. 29]. Ta’lim mazmunining torayishi, metodik turg‘unlik va amaliy hayotdan uzilish jamiyatda ma’rifiy inqirozning chuqurlashuviga olib keldi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem maktablari ta’lim sohasida yangi pedagogik modelni joriy etdi [1, B. 23-24]. Ushbu maktablar tashqi tomondan zamonaviy fanlar va metodikani olib kirgan bo‘lsada, ularning asosiy vazifasi mustamlakachilik boshqaruvi uchun sodiq mahalliy kadrlar tayyorlash edi[9]. Natijada ta’lim tizimi diniy-an’anaviy saqlanish va imperiyaviy modernizatsiya o‘rtasidagi mafkuraviy qarama-qarshilik maydoniga aylandi [5, B. 7].

Mazkur ziddiyatli sharoitda jadidchilik harakati shakllanib, ta’limni jamiyatni yangilash va milliy uyg‘onish vositasiga aylantirishga intildi. Jadidlar na eski maktabni butunlay inkor etdilar, na rus ta’lim modelini

so‘zsiz qabul qildilar; ular pedagogik sintez orqali yangi, milliy ta’lim konsepsiyasini yaratishga urindilar. Ularning “...maktablarni isloh qilish, ilk zamonaviy maktab darsliklarini yaratish borasida xizmatlari samaraliroq bo‘ldi” [2, B. 48].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimining holatini kompleks tahlil qilish va uning transformatsiya jarayonlarini tarixiy-pedagogik nuqtayi nazardan ochib berishdan iborat. Maqsadni amalga oshirishdagi vazifalari esa quyidagilardan iborat:

an’anaviy maktab va madrasalar tizimining mazmuni va metodik holatini tahlil qilish;

rus-tuzem maktablarining siyosiy va pedagogik funksiyasini ochib berish;

hududiy tafovutlar asosida ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash;

o‘qituvchi institutining ijtimoiy mavqei va roli evolyutsiyasini ko‘rsatish;

jadidchilik harakatining pedagogik mohiyatini baholash. METODOLOGIYA.

Muammoni yoritish tarixiy-pedagogik tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Bunda O‘rta Osiyo ta’lim tizimini alohida institut sifatida emas, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq murakkab tizim sifatida o‘rganish yondashuvi tanlandi. Shu bois fanlararo yondashuv ham qo‘llangan metodogiyalar sirasida yetakchilik qiladi.

Qo‘llanadigan asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

Tarixiy-tavsifiy metod – ta’lim tizimining shakllanishi, institutsional tuzilishi va faoliyatini tarixiy ketma-ketlikda yoritish uchun qo‘llanildi. Bu borada ingliz tadqiqoychisi D. Browerning “Rossiyaning Markaziy Osiyodagi protektoratlari” nomli tadqiqotiga suyanildi [7].

Manbalarni tanqidiy tahlil qilish – mahalliy ma’rifatparvarlar asarlari, mustamlaka ma’muriyati hujjatlari va zamonaviy tarixchilarning ilmiy tadqiqotlari solishtirildi.

Solishtirma-pedagogik metod – an’anaviy madrasa ta’limi, rus-tuzem maktablari va jadid maktablari o‘rtasidagi mazmuniy, metodik va ijtimoiy farqlarni aniqlash uchun ishlatildi.

Ijtimoiy-madaniy kontekstual tahlil – ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarning jamiyat tuzilmasi, gender munosabatlari, iqtisodiy sharoit va madaniy identitet bilan bog‘liqligi o‘rganildi.

Manbalar bazasini quyidagi guruhlar tashkil etadi:

XIX-XX asr boshlariga oid mahalliy ziyolilar (Ahmad Donish, Fitrat, Munavvarqori, Behbudiy) asarlari. Bunda B.Qosimov va boshqalar-

ning “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” darsligiga murojaat qilindi [1];

Rossiya imperiyasi Turkiston general-gubernatorligi maorif boshqarmasi hisobotlari va ularni sharhlovchi tadqiqotlar [5, B. 7];

rus mustamlaka mualliflari va ma’murlarining tavsiflari [8];

zamonaviy tarixchi va pedagog olimlarning fundamental tadqiqotlari [3, B. 5-8].

Mazkur metodologiya ta’lim tizimini faqat o‘quv jarayoni sifatida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi.

NATIJALAR.

An’anaviy maktab va madrasalar tizimi: mazmun, metod va ijtimoiy funksiyalar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimining asosiy tayanchi maktab va madrasalar bo‘lib qolayotgan edi. Ushbu ta’lim muassasalari asrlar davomida diniy bilimlarni uzatish, ijtimoiy axloqni mustahkamlash va jamiyatning ma’naviy barqarorligini saqlash vazifasini bajargan. Maktablar boshlang‘ich savodxonlikni, madrasalar esa oliy diniy-ilmiy tayyorgarlikni ta’minlagan [9].

Madrasalarda o‘qitiladigan fanlar tarkibi nisbatan barqaror bo‘lib, asosan fiqh, hadis, tafsir, sarf-nahv, mantiq, balog‘at va arab adabiyotiga asoslangan edi. Ushbu fanlar tizimi o‘rta asr islom ilmiy an’analarining bevosita davomchisi bo‘lib, diniy huquq va tilshunoslik sohalarida chuqur bilim berardi. Shunga ko‘ra, madrasalarni ilmiy jihatdan butunlay qoloq deb baholash ilmiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi [5]. Biroq, XIX asr oxiriga kelib ushbu tizimning asosiy muammosi metodik turg‘unlikda namoyon bo‘ldi. O‘qitish jarayoni yodlash va takrorlashga asoslanib, bilimning amaliy qo‘llanishi va hayotiy mazmuni chetda qoldi.

O‘quvchi bilimni tushunishdan ko‘ra, matnni yodlab qayta aytishga majbur edi. Yozma mashqlar, tahliliy fikrlash, bahs va savol-javob kabi pedagogik usullar deyarli mavjud emasdi [1, B. 5]. Bu holat natijasida madrasa ta’limi jamiyat ehtiyojlaridan tobora uzoqlashdi. Ilm diniy ramz sifatida saqlanib qoldi, ammo u ijtimoiy taraqqiyot omiliga aylana olmadi. Mazkur jarayon ta’limning ijtimoiy funksional inqirozi sifatida tavsiflanadi.

Madrasalarning yana bir muhim jihati – ularning iqtisodiy va tashkiliy mustaqilligining zaiflashuvi edi. Vaqf tizimining beqarorlashuvi, ma’muriy nazoratning kuchayishi natijasida ko‘plab madrasalar moddiy ta’minotda qiyinchiliklarga duch keldi. Natijada o‘qituvchilar iqtisodiy jihatdan qaram va zaif holatga tushdi, bu esa ta’lim sifati va davomiyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi [9]. Shu tariqa, XIX asr oxiridagi an’anaviy ta’lim tizimi o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki tomonlama xususiyat kasb etdi:

bir tomondan, u milliy-diniy identitetni saqlovchi institut bo‘lib qoldi; ikkinchi tomondan esa, yangilanishga yopiq, ijtimoiy rivojlanishni cheklovchi omilga aylandi.

Rus-tuzem maktablari va mustamlaka pedagogikasining shakllanishi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ta’lim siyosati an’anaviy ta’lim tizimini to‘liq yo‘q qilishga emas, balki uni nazorat ostiga olish va asta-sekin o‘zgartirishga qaratilgan edi. Shu maqsadda rus-tuzem maktablari tashkil etildi. Bu maktablar tashqi tomondan “madaniy integratsiya” modeli sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida mustamlakachilik boshqaruvining pedagogik instrumenti vazifasini bajardi.

Rus-tuzem maktablarida ta’lim ikki qismdan iborat edi: mahalliy komponent (arab yozuvi, Qur’on o‘qish) va rus komponenti (rus tili, arifmetika, geografiya, tarix) [5]. Biroq, mazmuniy ustuvorlik rus komponenti tomonida bo‘lib, o‘quvchilar asta-sekin imperiya madaniy makoniga moslashtirildi. Rus tilini majburiy singdirish mexanizmi asta-sekin yo‘lga qo‘yildi: "...ma’lumotlarga ko‘ra madrasalardan rus-tuzem maktablariga borib, rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lganlar 52 nafarni tashkil qilgan. Masalan, 1899-yildagi ma’lumotnomada bir mudarris madrasalarda darslarni 1 oktyabrdan boshlanib 1 maygacha davom etishini, darslar rasman boshlansa, rus-tuzem maktablariga borib rus tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan talabalar soni yanada oshishini va ularni albatta o‘qishga jo‘natishga kafolat berishini yozgan edi. Bu rus tilini o‘rganish madrasa talabalari uchun majburan joriy qilinganligidan dalolat beradi” [9, B. 150; 6]. Rus tili nafaqat fan sifatida, balki ijtimoiy lift vazifasini bajardi: ruscha savodli o‘quvchilar davlat xizmatiga, savdo va ma’muriy sohalarga kirish imkoniga ega bo‘ldilar.

Shu bilan birga, rus-tuzem maktablari mahalliy jamiyatda keskin ambivalent (bir vaqtning o‘zida ikki xil, bir-biriga zid bo‘lgan) munosabatni yuzaga keltirdi. Bir tomondan, ular zamonaviy bilimlar va yangi kasbiy imkoniyatlar ochdi; ikkinchi tomondan esa, milliy til, madaniyat va diniy qadriyatlarga tahdid sifatida qabul qilindi. Ayniqsa, o‘z tilida so‘zlashishga nisbatan cheklovlar va ruscha nutqni rag‘batlantirish holatlari madaniy begonalashuv jarayonini kuchaytirdi. Buni sho‘ro tuzumida kuchayib, bugungacha davom etib kelayotgan tendensiyalarda yaqqol kuzatish mumkin.

Pedagogik nuqtayi nazardan, rus-tuzem maktablari baholash va intizom tizimida muayyan yangiliklarni olib kirdi. Yillik imtihonlar, ball tizimi, rasmiy hisobotlar joriy etildi. Biroq, bu tizim mahalliy madaniyat bilan to‘liq moslashmadi: baho ko‘proq axloqiy hukm sifatida qabul qilinib, rag‘batlantirish funksiyasi yetarli darajada shakllanmadi [5, B. 123-127]. Natijada rus-tuzem maktablari O‘rta Osiyo ta’lim tarixida

o‘tish bosqichi sifatida namoyon bo‘ldi. Ular an’anaviy tizimni yemirdi, biroq, milliy ta’lim modelini yaratmadi. Aynan shu bo‘shliq jadidchilik harakatining pedagogik maydonga chiqishi uchun zamin yaratdi.

MUHOKAMA.

Hududiy tafovutlar: ta’lim mazmuni va ijtimoiy yuklamaning makon boyicha farqlanishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimi tashqi tomondan bir butun diniy-ta’limiy makon sifatida namoyon bo‘lsa-da, amalda hududiy jihatdan keskin farqlangan edi [6]. Ta’lim mazmuni, o‘qitish usullari, dunyoviy fanlarga munosabat hamda mustamlaka siyosatining ta’sir darajasi Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva misolida turlicha namoyon bo‘lgan [7]. Ushbu hududiy tafovutlar ta’lim tizimining ichki murakkabligini va jadidchilik g‘oyalarining notekis tarqalishini izohlaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Toshkent va Farg‘ona vodiysi XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi uchun Turkistonning ma’muriy va harbiy markazi bo‘lib, bu yerda rus-tuzem maktablari eng avval va eng faol shakllandi [5, B. 7]. Ta’lim jarayonida rus o‘qituvchilari bilan bir qatorda mahalliy muallimlar ham ishlagan bo‘lib, bu holat pedagogik sintezning dastlabki tajribalarini yuzaga keltirdi. Toshkent madrasalarida an’anaviy fanlar yetakchi bo‘lsa-da, ayrim ustozlar hisob, tarix, geografiya kabi fanlarni dars jadvaliga kiritishga uringan [5]. Biroq, bu jarayon tizimli emas, shaxsiy tashabbuslarga tayanib olib borilgan. Natijada Toshkent ta’lim muhitida modernlashuv uchun imkoniyat mavjud bo‘lgan, ammo yagona standart va barqaror model hali shakllanmagan [7, B. 178].

Buxoro amirligi esa ushbu davrda diniy-ta’limiy markaz sifatida tanilgani barchaga ayon haqiqat. Madrasalar sonining ko‘pligi va diniy fanlarning chuqur o‘qitilishi Buxoroni islomiy ilm markaziga aylantirgan bo‘lsa-da, aynan shu omil yangilanishga qarshi ichki qarshilikni kuchaytirdi. Buxoro madrasalarida o‘quv jarayoni qat’iy an’anaga bo‘ysunib, dunyoviy fanlar deyarli inkor etildi. O‘qitish kitob hajmi va ustoz tanloviga bog‘liq bo‘lib, vaqt va sinf tizimi mavjud emas edi. Natijada ta’lim jarayoni intizomiy jihatdan qattiq, ammo pedagogik jihatdan turg‘un bo‘lib qoldi. Buxoro ta’lim tizimi milliy-diniy tafakkurni saqlab qolgan bo‘lsa-da, pedagogik taraqqiyotning to‘siq nuqtasiga aylandi [6, B. 8].

Samarqand o‘zining tarixiy ilmiy merosiga qaramay, XIX asr oxiriga kelib ta’lim sohasida nisbatan zaiflashgan edi. Biroq, bu hududda isloh g‘oyalari asta-sekin ildiz ota boshladi. Ayrim ustozlar diniy fanlar bilan bir qatorda tarix va arifmetikani muqaddima sifatida o‘qita boshlagan. Eng muhimi, Samarqand jadidchilik harakatining muhim markaziga aylandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar aynan shu hududda ta’limni hayot bilan bog‘lash, maktabni jamiyat

muammolarini hal etuvchi institutga aylantirish zarurligini ilgari surdilar. Samarqand ta’lim muhiti diniy turg‘unlikdan ziyolilik uyg‘onishiga o‘tish bosqichini ifodalaydi [5].

Xiva xonligi ta’lim tizimi esa eng konservativ va yopiq model sifatida ajralib turdi. Madrasalar soni ko‘p bo‘lsa-da, o‘quv mazmuni qat’iy diniy doira bilan cheklangan, tashqi ta’sirlarga deyarli yopiq edi. Mustamlaka ma’muriyati va protektorat tuzilmasi kontekstida Xivada savodli kishilar nisbatan ko‘p bo‘lsa-da, ularning bilim doirasi shariat chegarasidan chiqmasligi qayd etiladi. Bu hududda ta’lim milliy o‘zlikni asragan, ammo ijtimoiy va pedagogik yangilanishni rad etgan model sifatida namoyon bo‘lgan [6].

Shunday qilib, hududiy tafovutlar O‘rta Osiyo ta’lim tizimining bir xillikdan yiroq ekanini ko‘rsatadi. Aynan ushbu farqlar jadidchilik harakatining ayrim hududlarda tez, boshqalarida esa sekin rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

O‘qituvchi instituti va ijtimoiy mavqe: an’anaviy mudarrisdan jadid muallimigacha. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimining markazida o‘qituvchi shaxsi turardi. Ta’lim jarayoni institutsional tizimga emas, balki muallimning shaxsiy saviyasi, diniy obro‘si va ijtimoiy maqomiga bog‘liq edi. Bu holat hozirgacha O‘rta Osiyoda faoliyat yuritiyotgan madrasalar muhitida kuzatilishiga guvoh bo‘lamiz. Shu bois, o‘qituvchi instituti ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

An’anaviy mudarrislar madrasalarda uzoq yillar tahsil olgan, diniy ilmlarni mukammal bilgan shaxslar bo‘lib, o‘qituvchilik huquqini rasmiy litsenziya yoki imtihon orqali emas, balki ustozining shaxsiy roziligi bilan qo‘lga kiritgan. Bu tizim ilmiy tanlovdan ko‘ra vorislik va taqlidni kuchaytirgan. Natijada pedagogika mustaqil fan sifatida shakllanmagan, o‘qitish metodikasi esa avloddan-avlodga deyarli o‘zgarmagan holda uzatilgan [1, B. 8].

Ijtimoiy jihatdan mudarrislar jamiyatda katta hurmatga ega bo‘lgan. Ular diniy yetakchi, axloqiy namuna sifatida qabul qilingan. Biroq, iqtisodiy ahvoli nihoyatda zaif edi: davlat tomonidan belgilangan maosh mavjud bo‘lmagan, o‘qituvchilar zakot, sadaqa va o‘quvchi oilalarining hadyalari hisobiga yashagan [8, B. 211]. Bu holat o‘qituvchining iqtisodiy qaramligini kuchaytirib, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatganligini taxmin qilish mumkin.

Rus-tuzem maktablaridagi o‘qituvchilar esa mutlaqo boshqa modelni ifodaladi. Bu maktablarda rus o‘qituvchilari davlat tomonidan maosh bilan ta’minlangan bo‘lsa, mahalliy muallimlar ikkilamchi rolni egallagan va past maosh olgan. Pedagogik jihatdan rus o‘qituvchilari

metodik jihatdan kuchli bo‘lsa-da, mahalliy madaniyat va tilni yetarli darajada tushunmagan. “Mahalliy muallimlar esa bolalar ruhiyatiga yaqin bo‘lsa-da, metodik tayyorgarligi cheklangan edi. Bu ikki qutb o‘rtasidagi ziddiyat rus-tuzem maktablarini pedagogik sintez maydoniga aylantirdi” [5, B. 165].

Jadid muallimlari paydo bo‘lishi bilan o‘qituvchi institutida tub burilish yuz berdi. Jadidlar muallimlikni diniy xizmat emas, balki ijtimoiy missiya sifatida talqin qildilar. “Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi.... Hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa yetishtirmoq lozim. Eski an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin, chunki zamon o‘zgargan” [1, B. 17]. Endi muallim nafaqat bilim beruvchi, balki millatni uyg‘otuvchi, jamiyatni isloh qiluvchi shaxsga aylandi. Jadid muallimlari Turkiya, Qrim va Kavkazdagi islohiy ta’lim markazlari bilan intellektual aloqada bo‘lib, zamonaviy metodika va dunyoviy fanlarni egallagan edi [7, B. 89].

Jadid muallimlari sinf tizimi, dars jadvali, yozma baholash, ko‘rgazmali vositalar va mantiqiy tushuntirishga asoslangan metodlarni joriy etdilar. Bu esa o‘qituvchini marosim bajaruvchidan pedagogik jarayon boshqaruvchisiga aylantirdi. Natijada muallimlik kasbi O‘rta Osiyoda ilk bor ijtimoiy yetakchilik maqomini ola boshladi [8, B. 191].

O‘quv vositalari va o‘qitish metodikasi: yodlash pedagogikasidan tafakkur pedagogikasiga o‘tish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimining eng zaif va muammoli jihatlaridan biri o‘quv vositalari va o‘qitish metodikasi bo‘lgan. An’anaviy maktab va madrasalarda ta’lim jarayoni asosan og‘zaki yodlash, matnni so‘zma-so‘z takrorlash va rivoyatga asoslangan bo‘lib, yozma mashqlar, amaliy ko‘nikmalar va mantiqiy tahlil deyarli mavjud emas edi. Bu pedagogik model bilimni rivojlantirishga emas, balki uni saqlab qolishga xizmat qilgan. Ismoilbek G‘aspiralining o‘qitishda yangi usul – metodika yaratishga zo‘r bergani ham bejiz emasdi: “Unda ... o‘quv soatining bolalar yoshiga muvofiq taqsimlanishi lozimligigacha, ... darslar orasida tanaffusdan imtihongacha... barcha masalalar qamrab olingan edi. ... muallif o‘qish-o‘qitishning yangi usuli haqida to‘xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga diqqatni qaratadi...” [1, B. 21].

Madrasalarda foydalanilgan darsliklar ko‘pincha qo‘lda ko‘chirilgan qo‘lyozmalar bo‘lib, asrlar davomida o‘zgarmagan matnlar qayta-qayta o‘qitilgan. Talaba matnni savol ostiga qo‘ymas, uni muqaddas va o‘zgarmas deb qabul qilardi. Natijada, ta’lim jarayonida tanqidiy tafakkur emas, balki itoat va xotira ustuvor bo‘ldi. Boshlang‘ich makta-

blarda ham o‘qish jarayoni Qur’on va alifboni yodlash bilan cheklanib, fonetik o‘qish, yozma mashqlar va yoshga mos metodika shakllanmagan edi. Bu holat o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini tasodifiy va ustoz shaxsiga bog‘liq qilib qo‘ydi [1, B. 21-23].

Jadidchilik harakati aynan shu metodik inqirozga javob sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar “usuli jadid” nomi bilan tanilgan yangi o‘qitish tizimini joriy etdilar. Ushbu tizim sinf asosidagi ta’lim, dars jadvali, fanlar ketma-ketligi, yozma mashqlar va ko‘rgazmali vositalarga tayangan edi. Jadid maktablarida bola o‘qiydi, yozadi, hisoblaydi va fikr bildiradi; bilim yodlash orqali emas, tushuntirish va amaliy misollar orqali o‘zlashtiriladi. Bu pedagogik burilish O‘rta Osiyo ta’lim tarixida yodlashdan tafakkurga o‘tish bosqichini ifodalaydi.

Jadidlar tomonidan yaratilgan yangi darsliklar (Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat asarlari) ilk bor ta’limni milliy til, ijtimoiy axloq va vatanparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirdi. Darslik endi faqat diniy bilim manbayi emas, balki milliy ongni shakllantiruvchi vositaga aylandi. Shu tariqa, o‘quv vositalari ta’limning texnik elementi emas, balki mafkuraviy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan omilga aylandi [7, B. 200].

Ta’limga kirish imkoniyatlari: gender, iqtisodiy va ijtimoiy cheklovlar. Yuqorida zikr qilingan manba va adabiyotlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda ta’limga kirish imkoniyatlari qat’iy ijtimoiy tabaqalanish bilan tavsiflanishiga dalolat qiladi. Ta’limdan eng ko‘p chetda qolgan guruhlar qizlar, kambag‘al oilalar farzandlari va qishloq aholisi bo‘lgan. “Qizlar ta’limi ko‘pincha uy sharoitidagi Qur’on saboqlari bilan cheklanib, ijtimoiy va madaniy qarshiliklar tufayli rasmiy maktablardan deyarli uzilgan edi” [5, B. 126].

Iqtisodiy omillar ham ta’limga kirishni cheklagan muhim faktor bo‘ldi. Kambag‘al oilalar farzandlari ko‘pincha 10-12 yoshdan boshlab oilaviy mehnatga jalb etilib, maktabni tark etishga majbur bo‘lgan. Ayniqsa qishloq hududlarida mavsumiy mehnat (ekish va yig‘im-terim davrlari) sababli bolalar ta’lim jarayonidan uzilib qolgan. Bu holat sinf tizimining shakllanishiga va ta’limning uzluksizligiga jiddiy to‘sqinlik qilgan [5].

Jadidlar ushbu muammolarga “davlat islohoti” emas, balki “ma’naviy va ijtimoiy islohot” yo‘li bilan yondashdilar [4]. Qizlar maktablarini ochish, xayriya jamiyatlari orqali kambag‘al bolalar uchun stipendiyalar ajratish, qishloqlarda ko‘chma maktablar tashkil etish kabi tashabbuslar ta’limga kirish doirasini kengaytirdi. Eng muhimi, jadidlar ta’lim motivatsiyasini tubdan o‘zgartirdilar: o‘qish endi faqat diniy savob emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy foyda manbai sifatida talqin qili-

na boshlandi.

NATIJALAR.

Jadidchilik – pedagogik sintez va milliy uyg‘onish modeli. O‘rta Osiyo ta’lim tizimida yuzaga kelgan ziddiyatlar – an’anaviy diniy ta’limning turg‘unligi va mustamlaka pedagogikasining begonalashtiruvchi xarakteri – jadidchilik harakatining shakllanishiga olib keldi. Jadidlar bu ikki modelni inkor etish emas, balki ularning muayyan jihatlarini sintez qilish yo‘lini tanlaganlari yuqoridagi tahlillardan yuzaga chiqmoqda. Ular diniy-ma’naviy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy fanlar, metodika va tashkiliy tizimni ta’limga olib kirdilar.

Jadidchilik pedagogik jihatdan milliy uyg‘onish modeli sifatida namoyon bo‘ldi. Maktab endi faqat bilim beruvchi institut emas, balki jamiyatni yangilovchi, milliy ongni shakllantiruvchi maydonga aylandi. Jadidlar uchun ta’lim – bu madaniy mustaqillikning eng muhim sharti edi, desak, to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz. Shu sababli ular matbuot, teatr va adabiyot orqali ham ta’lim g‘oyalarini keng targ‘ib qildilar. Ta’lim devorlar ichidan chiqib, butun jamiyat miqyosidagi madaniy harakatga aylandi. Bu harakat hudud aholisini birlashtirib, yagona maqsadga yo‘naltiruvchi milliy g‘oyaga asos soldi. Bu nafaqat o‘tgan asr, balki O‘rta Osiyo xalqlarining bugungi kuni uchun muhim ahamiyat kasb etdi, chunki: “Milliy g‘oya biror millatga mansub kishilar e’tiqodi hamda tafakkurining asosiy jihatlari: mamlakat ravnaqi, faravonligi va ozod bo‘lishiga qat’iy ishonch, mas’ullik, fidoyilik, vatan manfaati uchun kurashga doimo tayyor bo‘lishdek ruhiy kuchdan iborat umumiy qadriyat va tushunchalar tizimidir” [4, B. 286].

XULOSA.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo ta’lim tizimi murakkab va ziddiyatli transformatsiya bosqichini boshdan kechirdi. An’anaviy maktab va madrasalar diniy-ma’naviy merosni saqlagan bo‘lsa-da, metodik va mazmuniy jihatdan zamonaviy taraqqiyotdan ortda qoldi. Rus-tuzem maktablari esa ilmiy va tashkiliy yangiliklarni olib kirgan bo‘lsa-da, mustamlakachilik mafkurasi bilan bog‘liq bo‘lib, milliy identitetni zaiflashtirdi.

Mazkur ikki model o‘rtasidagi qarama-qarshilik jadidchilik harakatining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Jadidlar ta’limni millatni ma’naviy va ijtimoiy qutqarish vositasi sifatida talqin qilib, milliy pedagogikaning asoslarini yaratdilar. Ularning faoliyati O‘rta Osiyoda zamonaviy ta’lim tizimi, o‘qituvchi instituti va pedagogik tafakkur shakllanishi uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Shu ma’noda, jadidchilik O‘rta Osiyo ta’lim tarixida eng muhim burilish nuqtasi sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
2. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
3. Xolid A. O‘zbekiston tavalludi. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
4. Yo‘ldosh Q. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – Toshkent: Tafakkur, 2023.
5. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
6. Brower D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London: Routledge, 2003.
7. Becker S. Russia’s Protectorates in Central Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1968.
8. Allworth E. Central Asia: 130 Years of Russian Dominance. – Durham: Duke University Press, 1994.
9. “O‘zbekistonda madrasa ta’lim tizimi tarixi” elektron portali. – URL: local/host/samsu/public/madrasalar